



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17708389>

Ta'lim jarayonida mediasavodxonlikning roli: mediata'limning ahamiyati va istiqboli

Mirzayeva Madina Mutalib qizi –
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: mad.mirzo.123456789g@mail.com
ORCID: <https://orcid.org/0009-0004-0195-7581>
Tel: +998 94 269-00-66

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida mediasavodxonlikning o'rni, mediata'limning ahamiyati va uning rivojlanish istiqbollari yoritilgan. Mediasavodxonlikning shakllanishi o'quvchilarda axborotni tanlash, tahlil qilish va samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mediata'limning samarali tatbiqi ta'lim jarayonining interaktivligini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va o'quvchilarni zamonaviy axborot-muhitga moslashtirish imkonini beradi. Maqolada mediasavodxonlikni o'qitishning nazariy asoslari, metodik yondashuvlari, zamonaviy texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonida qo'llanilishi, shuningdek, mediata'limning kelajakdagi istiqbollari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mediata'lim, mediasavodxonlik, ta'lim, tanqidiy fikrlash, axborot oqimi, ijtimoiy mas'uliyat.

Роль медиаграмотности в образовательном процессе: Значение и перспективы медиаобразования

Аннотация. В данной статье освещается роль медиаграмотности в образовательном процессе, значимость медиапедагогики и перспективы её развития. Формирование медиаграмотности способствует развитию у учащихся навыков отбора, анализа и эффективного использования информации. Кроме того, эффективное внедрение медиапедагогики повышает интерактивность образовательного процесса, развивает критическое мышление и позволяет

адаптировать учащихся к современной информационной среде. В статье анализируются теоретические основы преподавания медиаграмотности, методические подходы, применение современных технологий в образовательном процессе, а также перспективы развития медиапедагогики..

Ключевые слова: медиаграмотность, медиасаводчество, образование, критическое мышление, информационный поток, социальная ответственность..

The role of media literacy in the educational process: the importance and prospects of media education

Annotation. *This article highlights the role of media literacy in the educational process, the importance of media education, and its development prospects. The formation of media literacy helps students develop skills in selecting, analyzing, and effectively using information. Moreover, the effective implementation of media education enhances the interactivity of the learning process, promotes critical thinking, and enables students to adapt to the modern information environment. The article analyzes the theoretical foundations of teaching media literacy, methodological approaches, the application of modern technologies in education, as well as the future prospects of media education.*

Keywords: *media education, media literacy, education, critical thinking, information flow, social responsibility.*

KIRISH

Bugungi axborot asrida ta'lim tizimida mediasavodxonlikning roli tobora ortib bormoqda. Mediata'limning ahamiyati shundaki, u talabalarda axborotni tahlil qilish, mualliflikni aniqlash, xabarlar va tasvirlarning ta'sirini tushunish qobiliyatini shakllantiradi. Istiqbolli jihatlari esa, raqamli texnologiyalar rivojlanishiga bog'liq holda, ushbu ko'nikmalarning kelajakdagi muvaffaqiyat uchun zarurligi hisoblanadi.

Mediata'lim – bu axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning media savodxonligini oshirishga qaratilgan ta'lim jarayonidir. Bu jarayon talabalarga axborotni topish, tahlil qilish, baholash va samarali tarzda ishlatish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Mediata'lim talabalarga axborotni tanqidiy tahlil qilish imkonini beradi. “Mediata'limning asosiy maqsadi – o'quvchilarga axborot manbalarini baholash va ularni kontekstga qo'yish qobiliyatini berishdir”. Hozirgi kunda axborot miqdori juda katta. Mediata'lim yordamida talabalar axborotni qanday topish va undan qanday foydalanishni o'rganadilar. Mediata'lim talabalarni jamiyatda faol ishtirok etishga undaydi. “Mediata'lim orqali olingan bilimlar nafaqat individual manfaatlar uchun, balki ijtimoiy masalalar uchun ham ishlatilishi mumkin”. YUNESKO tomonidan mediata'lim dunyoning barcha mamlakatlari ta'lim tizimlari milliy o'quv rejalariga joriy etishni tavsiya etiladi. Hozirgi kunda Yevropa davlatlari, AQSh, Avstraliya va Rossiya singari mamlakatlarda mediata'lim majburiy fan sifatida ta'lim tizimiga kiritilgan. YUNESKO tashkilotining 1982-yil Germaniyaning Gryunvald shahrida, 1997-yil Parijda, 2002-yil Ispaniyaning Sevilya shahrida o'tkazilgan konferensiyalari rezolyutsiya va tavsiyalarida mediata'lim masalalariga alohida to'xtalib o'tilgan. Xususan, AQShda ko'plab maktablarda mediata'lim dasturlari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Masalan, “MediaSmarts” dasturi o'quvchilarga media-savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi va natijada ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlari oshadi. Shuningdek, turli

onlayn platformalar ham yaratilgan bo'lib, uning vositasida mediata'lim resurslari taqdim etiladi. Masalan, "Common Sense Education" onlayn platformasi orqali o'qituvchilar o'z darslarini yanada interaktiv va qiziqarli qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Universitetlarda ham mediata'lim kurslari joriy etilgan bo'lib, bu talabalarni zamonaviy media muhitida faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

Mediata'lim shaxsning axborot olish va tarqatish huquqining bir qismi hamda hozirgi davrda shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali rivojlanish jarayonini ham anglatadi. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda barcha media-resurslarini tahlil qilish muhim rol o'ynaydi. Xorijiy mediata'limning tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalar o'zining o'qish jarayonida asosan internet, televideniya manbalaridan foydalanishadi. Yoshlarimizning axborot bilan ishlash, axborot qidirish, turli yolg'on ma'lumotlarga aldanib qolmaslik, zarur axborotlarni ajrata bilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, axborot mazmunini tushunish, do'stlarga xolis manbalarni uzatish, mantiqiy fikrlay olishni o'rganish kabilar asosida axborot madaniyati shakllanadi. Axborotning kim uchun va nima maqsadda tayyorlanganligini tushuna bilish muhim ahamiyatga ega. Har bir shaxs aloqa sohasida qanday texnik vositalar ishlatilishi to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarda axborotlarni tahlil qila olish, axborotdagi asosiy xabarni ajratish, aloqaning yo'nalishini, uning yashirin ma'nosini to'g'ri tushunish, qisqa qilib aytganda, har qanday axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ta'limning barcha bosqichlarida alohida e'tibor qaratish lozim. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar pedagogikasida mediata'lim tushunchasi asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalar sohasining bosqichma-bosqich liberallashuvi kuzatilayotgani qayd etilmoqda. Bu jarayonni mustaqil bosma va elektron ommaviy axborot vositalari (birinchi navbatda, internet nashrlari) faoliyatida yaqqol kuzatish mumkin. Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanishni rivojlantirishda masofali o'qitish alohida o'rin egallaydi. Masofadan turib o'qitish bu inson o'zining bilim darajasini oshirishni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda xoxlovchilar, maktabga borish imkoniyati bo'lmagan, nogironlar, keksa yoshdagilar kabilar uchun katta yo'l ochib beradi. Masofali o'qitishda biz hech kimni majbur qila olmaymiz. Bunda xoxlovchi o'z imkoniyatiga qarab muloqot qilish, qo'shimcha axborot to'plash va fikr almashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masofali o'qitish hozirgi kunning barcha talablariga javob beradi, ayniqsa, yo'l xarajatlarini hisobga olmaganda, kunduzgi ta'limni barcha sistemalarini tashkil qilish mablag'lariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mediasavodxonlik va mediata'lim sohasidagi ilmiy tadqiqotlar oxirgi o'n yillikda jadal rivojlanib bormoqda. Xorijiy olimlar, jumladan A.Potter va D.Hobbs, mediasavodxonlikni axborot bilan ishlash qobiliyatining asosiy komponenti sifatida ko'rib, uning ta'lim jarayoniga integratsiyasini va pedagogik ahamiyatini keng tahlil qilganlar. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, mediasavodxonlik o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, axborot manbalarini tahlil qilish va ongli ravishda axborot tanlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, P.Mihailova mediata'limni interaktiv pedagogik jarayon sifatida ko'rib, innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlarini ta'kidlaydi.

Mahalliy olimlar ham mediasavodxonlik va mediata'lim masalalarini o'rganish bilan faol shug'ullanmoqda. N.Jo'rayev va U.Nishonov mediata'limning nazariy asoslarini yoritib, uning milliy ta'lim tizimida tatbiqi va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilganlar. Shu bilan birga, A.Abduqodirov mediasavodxonlikni pedagogik jarayonda interaktiv metodlar orqali shakllantirishning samarali mexanizmlari va usullarini taklif qilgan.

Mediasavodxonlikni rivojlantirish jarayonida uch asosiy yo'nalish mavjud: *birinchisi* – nazariy asoslar (mediasavodxonlik kontseptsiyasi, pedagogik yondashuvlar); *ikkinchisi* – metodik yondashuvlar (interaktiv darslar, loyihaviy faoliyat, raqamli resurslar); *uchinchisi* – amalga tatbiq etish (maktab va oliy ta'lim muassasalarida mediata'limni integratsiya qilish).

Shu yo'nalishlar orqali ta'lim jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborot bilan ishlash va ijodiy qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, mediata'limni samarali amalga oshirish pedagogik jarayonni interaktiv va innovatsion shaklga keltirishga, o'quvchilarning axborot bilan ishlash malakasini oshirishga, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, amaliy tadqiqotlar mediata'limning kelajakdagi istiqbollari sifatida raqamli texnologiyalarni keng qo'llash, onlayn ta'lim platformalarini integratsiya qilish va o'quvchilarning shaxsiy axborot-kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishni ko'rsatmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot mediasavodxonlikning ta'lim jarayonidagi ahamiyati va mediata'limni rivojlantirish istiqbollarini ilmiy asosda aniqlashga qaratilgan bo'lib, kompleks metodologik yondashuv asosida tashkil etildi. Tadqiqotning nazariy bosqichida mediasavodxonlik va mediata'lim bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tahlil qilinib, mediata'limning mazmun-mohiyati, pedagogik ahamiyati va metodik yondashuvlari aniqlangan. Shu jarayonda kontent-tahlil, qiyosiy pedagogik tahlil va konseptual tahlil metodlari qo'llanib, mediasavodxonlikni o'qitishning nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik usullari yoritildi.

Amaliy bosqichda empirik metodlar – so'rovnoma, test, intervyu va kuzatuvlar qo'llanildi. Tadqiqot doirasida 82 nafar talabalar hamda 18 nafar pedagoglar ishtirokida so'rovnoma o'tkazilib, o'quvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmalari, tanqidiy fikrlash darajasi va mediata'limga bo'lgan qiziqishlari baholandi. Shu bilan birga, pedagoglar va rahbarlar bilan chuqurlashtirilgan suhbatlar tashkil etilib, mediata'limni amaliyotga tatbiq etishdagi imkoniyatlar, muammolar va samarali usullar aniqlandi. Kuzatuv metodlari orqali esa ta'lim muassasalaridagi interaktiv darslar, axborot-resurslardan foydalanish darajasi va o'quvchilarning faol ishtiroki baholandi.

Eksperimental bosqichda mediata'limni rivojlantirishga qaratilgan interaktiv modulli o'quv dasturi sinovdan o'tkazildi. Dastur diagnostik, trening va yakuniy baholash bosqichlarini o'z ichiga olib, o'quvchilarning axborot bilan ishlash malakasini rivojlantirish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini oshirish imkonini berdi. Olingan ma'lumotlar foiz tahlili, o'rtacha ko'rsatkichlar, dinamik o'zgarishlar va grafik vizuallashtirish usullari yordamida qayta ishlanib, ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo'ldi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi mediasavodxonlik va mediata'limning nazariy va amaliy jihatlarini birlashtirib, ta'lim jarayonida ularni samarali rivojlantirish yo'llarini aniqlashga xizmat qilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mediata'limni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarning axborot bilan ishlash, tanqidiy fikrlash va muammolarni mustaqil hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Eksperimental o'quv-modul tatbiqi davomida o'quvchilarning axborot resurslarini tanlash va tahlil qilish qobiliyati 30 foizga, interaktiv faoliyatlarda ishtiroki 25 foizga va mediata'limga qiziqishi 33 foizga oshgani aniqlangan. Shu bilan birga, pedagoglar tomonidan o'tkazilgan kuzatuvlar va intervyular o'quvchilarning o'zaro muloqoti, kreativ ishlash va axborot bilan ongli ishlash ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar kuzatilganini tasdiqladi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, mediasavodxonlikning shakllanishi ta'lim jarayonining sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Xorijiy tadqiqotlar (D.Hobbs, A.Potter) mediasavodxonlikni o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, axborotni filtrlash va samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy omili sifatida ko'rsatgan. Mahalliy tadqiqotlar (N.Jo'rayev, A.Abduqodirov) esa mediata'limni maktab va kollej pedagogik jarayoniga tatbiq etish orqali o'quvchilarning axborot-muhitga moslashuvi va o'quv motivatsiyasining oshishini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mediata'limning samarali natijalari quyidagi omillarga bog'liq: pedagoglarning metodik tayyorgarligi, interaktiv va loyiha asosidagi o'quv faoliyati, raqamli texnologiyalardan keng foydalanish, hamda o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashuvchan yondashuv. Bu esa mediata'limni ta'lim jarayonida uzoq muddatli, barqaror samaraga ega tizim sifatida rivojlantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari mediata'limning o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyatini tasdiqlab, uni yanada kengaytirish va ilgari surish orqali o'quvchilarning axborot bilan ishlash malakasini, tanqidiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirish mumkinligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, natijalar mediata'limning kelajakdagi istiqbollari – interaktiv platformalar, onlayn resurslar va raqamli vositalar yordamida ta'lim sifatini oshirish yo'nalishlarini aniqlashga imkon berdi.

XULOSA

Ta'lim jarayonida mediasavodxonlikni rivojlantirish o'quvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi va ularning tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish hamda ijodiy faoliyatini rag'batlantiradi. Eksperimental-modulli o'quv dasturi natijasida o'quvchilarning axborotni tahlil qilish va baholash qobiliyati, interaktiv darslarda faol ishtirok etishi va mediata'limga qiziqishi sezilarli darajada oshgani aniqlangan. Bu esa mediata'limning ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Mediasavodxonlik nafaqat o'quvchilarning individual rivojlanishiga, balki butun pedagogik jarayonning sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar bilan solishtirilganda, mediata'limni tizimli va metodik asosda tatbiq etish o'quvchilarning axborot bilan ishlash malakasini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va zamonaviy axborot-muhitga moslashuvchanlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, pedagoglarning metodik tayyorgarligi, interaktiv va loyiha asosidagi o'quv faoliyati hamda raqamli resurslardan samarali foydalanish mediata'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari mediata'limning kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini ham ko'rsatib berdi. Jumladan, onlayn ta'lim platformalarini integratsiya qilish, raqamli texnologiyalar va interaktiv vositalardan keng foydalanish orqali o'quv jarayonini innovatsion shaklga keltirish mumkinligi aniqlandi. Shu tariqa, mediata'limning rivojlanishi nafaqat o'quvchilarning shaxsiy axborot-kommunikatsiya qobiliyatlarini oshiradi, balki ta'lim muassasasining interaktiv, ijodiy va sifatli ta'lim muhitini yaratishga ham hissa qo'shadi.

Umuman olganda, tadqiqot mediasavodxonlik va mediata'limning pedagogik ahamiyatini, ularni ta'lim jarayonida samarali rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini tasdiqladi. Shu bilan birga, olingan natijalar mediata'limni yanada kengaytirish va modernizatsiya qilish orqali o'quvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamlash, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish hamda ta'lim jarayonini innovatsion va interaktiv shaklga keltirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Abduqodirov Ta'lim muassasalari rahbarlarining malaka oshirish tizimi va kompetentligi. Toshkent: Pedagogika nashriyoti, –2020.
2. D.Hobbs Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. Thousand Oaks, CA: Corwin Press, –2021.
3. N.Jo'rayev Pedagogik jarayonda mediata'limning metodik asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, –2017.
4. P.Mihailova Interactive Media Education in Schools. Moscow: Pedagogical Press, –2016.
5. U.Nishonov Ta'lim muassasalari va mediata'lim: nazariy va amaliy tahlil. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti.
6. T.Bush and D.Middlewood Leading and Managing Schools. London: SAGE Publications, –2019.
7. C.Day and K.Leithwood Successful School Leadership: Global Perspectives. London: Routledge, –2020.
8. D.Buckingham "Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture". Cambridge: Polity Press.
9. R.Hobbs "Media Literacy in the Digital Age". New York: Wiley, –2017.